

O'ZBEK MILLIY KUYLARINING SHAKILLANISHI VA XUSUSIYATLARI

Andijon davlat universiteti

Sport va san'at fakulteti

Musiqqa san'ati kafedrası

Vokal ijrochiligi yo'nalishi o'qituvchisi

Mo'ydinov Jahongir Qahramanjanovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek milliy kuylarining shakllanish jarayoni, tarixiy ildizlari hamda badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi, maqom san'ati va hududiy musiqiy an'alarining milliy kuylar rivojiga ta'siri yoritilgan. O'zbek milliy kuylarining ohangdorlik, ritmik xilma-xillik, badihago'ylik va milliy cholg'ular bilan uyg'unligi kabi o'ziga xos jihatlari ilmiy asosda tavsiflangan. Maqolada milliy kuylarning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni va milliy madaniyatni asrashdagi ahamiyati ham ochib berilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются процесс формирования узбекских национальных мелодий, их исторические корни и художественно-эстетические особенности. Освещается влияние устного народного творчества, искусства макома и региональных музыкальных традиций на развитие национальной музыки. Научно описаны такие особенности узбекских национальных мелодий, как мелодичность, ритмическое разнообразие, импровизация и гармония с национальными музыкальными инструментами. Также раскрывается значение национальных мелодий в воспитании молодого поколения и сохранении национальной культуры.

Annotation: This article analyzes the formation process of Uzbek national melodies, their historical roots, and artistic-aesthetic characteristics. It also highlights the influence of oral folk art, maqom art, and regional musical traditions on the development of national music. The specific features of Uzbek national melodies, such as melodiousness, rhythmic diversity, improvisation, and harmony with traditional musical instruments, are scientifically described. The article also reveals the importance of national melodies in educating the younger generation and preserving national culture.

Kalit so'zlar: o'zbek milliy kuylari, maqom, xalq musiqasi, Shashmaqom, milliy cholg'ular, musiqqa madaniyati, folklor, an'anaviy ijrochilik.

Ключевые слова: узбекские национальные мелодии, маком, народная музыка, Шашмаком, национальные инструменты, музыкальная культура, фольклор, традиционное исполнительство.

Keywords: Uzbek national melodies, maqom, folk music, Shashmaqom, traditional instruments, musical culture, folklore, traditional performance.

O‘zbek milliy musiqasi o‘z ildizlarini qadimgi davrlardan, hatto yozuv paydo bo‘lmagan zamonlardan boshlab oladi. O‘zbek xalqining musiqiy tafakkuri, kuy va ohanglarga bo‘lgan munosabati, ularning hayotiy voqealar, mehnat jarayonlari va marosimlar bilan uzviy bog‘liqligi orqali shakllangan. Qadimgi Buxoro, Samarqand, Xorazm, Termiz kabi shaharlarda musiqa san‘ati yuqori darajada rivojlangan. Arxeologik topilmalarda topilgan musiqiy cholg‘u asboblari (nay, chang, doira, karnayga o‘xshash asboblari) va devoriy tasvirlar, shuningdek, qadimgi qo‘lyozmalardagi guvohliklar musiqaning qadimiyligini tasdiqlaydi. Zardushtiylik davrida musiqa diniy marosimlar bilan bog‘langan bo‘lib, bu davr kuy va ohanglari ko‘pincha xudolarga sig‘inish, ibodat marosimlarini hamroh qilgan. Shu bilan birga, musiqa dostonlar, afsonaviy qahramonlar haqidagi hikoyalar orqali og‘zaki ijodning asosiy vositalaridan biri sifatida qo‘llangan. Bu jarayon o‘zbek xalq musiqasining shakllanishida muhim rol o‘ynagan.

VIII–X asrlarda islom dini tarqalganidan so‘ng Markaziy Osiyo madaniy hayotida yangi bosqich boshlandi. Musiqa san‘ati ham bu davrda ilmiy asosda rivojlanib bordi. X asrda yashagan mashhur faylasuf va musiqashunos Abu Nasr al-Farobiy o‘zining “Kitob al-musiqa al-kabir” (“Katta musiqa kitobi”) asarida musiqaning nazariy asoslarini, kuylarning tuzilishini, ohanglarning ruhiyatga ta‘sirini ilmiy izohlagan. Keyinchalik Ibn Sino (980–1037) ham musiqa nazariyasi bilan shug‘ullangan. U “Kitob ush-shifo” va “Kitob un-najot” asarlarida musiqaning fiziologik va psixologik ta‘siri haqida fikr bildirgan. Ibn Sino musiqa bilan davo usullari haqida yozgan va ohanglarning inson ruhiyatiga ijobiy ta‘siri borligini isbotlashga harakat qilgan. Shuningdek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ijodkorlar o‘z asarlarida musiqaning inson hayotidagi o‘rni, uning axloqiy va estetik ta‘siri haqida yozgan. Ayniqsa, Navoiy “Mahbubul-qulub” va “Xamsa” asarlarida musiqa san‘atining badiiy tasvirlarini keltiradi.

Xalq musiqasi og‘zaki an‘ana asosida rivojlanib, kuylar va qo‘shiqlar asrlar davomida og‘zaki tarzda avlodlardan avlodga o‘tgan. Har bir mintaqaning o‘ziga xos musiqiy lahjasi, ohangdorligi, ijro uslubi shakllangan. Masalan: Farg‘ona-Toshkent maktabi – lirizmga boy, kuylarning ravonligi bilan ajralib turadi; Xorazm maktabi – ritmik murakkablik, improvizatsiya va noodatij ohanglar bilan mashhur; Buxoro-Samarqand maktabi – maqomiy tuzilma va klassik uslubdagi kuylar ko‘p uchraydi. Bu mintaqaviy maktablar o‘zining ohangdorligi, sozanda va hofizlar ijrosi orqali o‘zbek milliy musiqasining boy qatlamini tashkil etadi.

O‘zbek xalqining turmush tarzida musiqa doimiy hamroh bo‘lgan. To‘y marosimlari, sunnat to‘ylari, yas, sayil va bayramlarda cholg‘u asboblari va xalq kuylarisiz o‘tmagan. Mehnat jarayonlarida esa ayollar va erkaklar birgalikda turli yo‘l, hosil terimi, supurgi solish kabi ishlar davomida qo‘shiq kuylashgan. Bu holat

musiqaning faqat badiiy emas, balki ijtimoiy, tarbiyaviy va ruhiy quvvat manbai bo'lganini ko'rsatadi.

O'zbek milliy musiqasining asosiy qatlamini xalq kuy va qo'shiqlari tashkil etadi. Ular og'zaki an'anaga tayanib, avlod-dan-avlodga ko'chib, o'zining tabiiy shaklida saqlanib kelgan. An'anaviy kuylar xalqning tarixi, ijtimoiy hayoti, urf-odatlarini, diniy qarashlari, shuningdek, estetik didining mahsuli sifatida shakllangan. Ushbu kuylar o'zbek xalqining hayot tarzi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ko'p hollarda muayyan mavsumiy ishlar, marosimlar, diniy yoki ma'rifiy an'analar bilan chambarchas aloqadordir. Shuning uchun an'anaviy kuylar musiqiy ifoda vositasi sifatida nafaqat san'at, balki tarixiy, madaniy va ijtimoiy voqealarning aksidir.

O'zbek xalq musiqasi bir necha asosiy janr va shakllarga ajraladi: Lirik-epik kuylar – bu janrda kuylar asosan dostonlar, tarixiy voqealar va qahramonlik afsonalari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, “Alpomish”, “Go'ro'g'li”, “Rustam” kabi dostonlar musiqali ijro orqali ifodalangan. Marosim kuy va qo'shiqlari – turmushdagi muhim bosqichlarga bag'ishlangan (to'y, sunnat, yas, bolani beshikka solish, maktabga chiqarish va h.k.). Bu kuylar urf-odatlar bilan bog'liq tarzda shakllangan. Mehnat qo'shiqlari – xalqning mehnat faoliyati davomida ijro etilgan. Masalan, paxta terimi, g'alla yig'imi, gilam to'qish jarayonida aytiladigan qo'shiqlar. Lazgilar va raqs kuylar – xalq raqslari uchun yaratilgan kuylar. Lazgi janri o'zining ritmik murakkabligi, harakatlarga boyligicha mashhur. Qo'shiq va termalar – ko'proq lirik, ma'naviy-axloqiy mazmunga ega bo'lib, ko'ngil holatlarini, muhabbat, sog'inch, shukronalik, tanbeh, sabr kabi tushunchalarni ifoda etadi.

O'zbek an'anaviy kuylarini boshqa xalq musiqasi madaniyatlaridan ajratib turuvchi bir necha muhim uslubiy belgilar mavjud: Modal (ladli) asos – O'zbek kuylarida ko'pincha maqom va pentatonika asosidagi lad tizimlari ishlatiladi. Ularning ichida rast, nava, shur, segoh, hijoz kabi maqomladlar muhim o'rin egallaydi. Bu ohanglar musiqaga o'ziga xos sharqona ruh bag'ishlaydi. Ritmik murakkablik – Ko'plab kuylar notekis o'lchovda (5/8, 7/8, 9/8) yozilgan bo'lib, ularning ritmik o'ziga xosligi xalq raqslari bilan bevosita bog'liqdir. Improvizatsiya (erkin ijro) – Sozanda va hofiz ijrosida ko'pincha erkinlik, ya'ni musiqiy g'oyaning ijodiy tarzda ifodalanishi mavjud. Bu holat kuylar har bir ijroda yangicha ohangdorlikka ega bo'lishiga sabab bo'ladi. Shaklning erkinligi – An'anaviy kuylar an'anaviy G'arb musiqasidagi “forma” tushunchasiga to'liq mos kelmaydi. Ko'p hollarda ular “navbatma-navbat” usulida, ya'ni musiqiy bo'limlarning ketma-ketligi orqali rivojlanadi (masalan, saraxbor, talqin, nasr, ufor, musaddas va h.k.). Ijrochilik maktablari – Har bir mintaqaning o'ziga xos ijro maktabi mavjud bo'lib, kuylarning talaffuzi, ohangdorligi va dinamikasi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, Farg'ona maktabi nafislik va lirizmga boy, Xorazm maktabi esa kuchli emotsional ta'sirga ega.

Xalq kuylari va maqom san'ati bir-biri bilan uzviy bog'liq. Ko'plab maqom ohanglari xalq og'zaki ijodida qayta ishlangan, yengillashtirilgan yoki yangicha variantlarda kuylanib, turli mintaqaviy kuylar sifatida shakllangan. Bu jarayon "xalqona maqomlashuv" deb ataladi. Masalan, Shashmaqom tizimidagi ayrim bo'limlar xalq orasida oson va qulay variantlarda kuylanadi, hatto ularning asliyatidan sezilarli darajada farq qilgan bo'lsa ham, lad-intonatsion asos saqlanib qoladi. Bu holat an'anaviy musiqaning rivojlanishiga, uning yanada ommalashishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ayrim xalq kuylaridan kelib chiqqan holda yangi maqom ohanglari vujudga kelgan hollari ham uchraydi. Bu esa xalq musiqasi va professional musiqaning o'zaro boyish jarayonini anglatadi.

Xulosa qilganda, o'zbek xalqining an'anaviy kuy va qo'shiqlari o'ziga xos musiqiy tafakkur mahsuli bo'lib, ular o'zbek milliy musiqasining asosiy qatlamini tashkil etadi. Ular shakl, uslub, mazmun va ijro jihatidan nihoyatda boy va xilma-xildir. Ushbu kuylar orqali xalqning hayot tarzi, dunyoqarashi, ma'naviy-ruhiy olami ifodalanadi. Aynan shu kuylar keyinchalik o'zbek professional musiqasining, xususan, orkestrlash tajribalarining asosiy ilhom manbaiga aylangan.

O'zbek milliy musiqa madaniyatida cholg'ular alohida o'rin tutadi. Ular faqat kuy ijrochiligi bilan chegaralanmay, balki xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari, ruhiy holati va madaniy qadriyatlarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Cholg'ular kuy va qo'shiqlarning mazmunini to'liq ifoda etish, ularning ohangdorligini, kayfiyatini va hissiy kuchini kuchaytirishda muhim vositadir. O'zbek xalqi orasida keng tarqalgan cholg'ular asrlar davomida shakllangan va takomillashgan. Arxeologik topilmalarda, jumladan, Afrosiyob, Qoratepa va Varaxsha kabi yodgorliklarda miloddan avvalgi davrlarga oid musiqa asboblarning tasvirlari aniqlangan. Bu esa o'zbek cholg'ularining qadimiyligini ko'rsatadi. O'zbek cholg'ularining aksariyati Sharq musiqiy an'alariga mansub bo'lib, ularning ba'zilari fors-tojik, arab va turkiy xalqlarning musiqiy madaniyati bilan ham bog'liq. Biroq bu asboblarda o'zbek xalqining estetik qarashlari, ehtiyojlari va ijrochilik uslubi asosida o'ziga xos shakl va ohangdorlikka ega bo'lgan.

O'zbek milliy cholg'ulari odatda quyidagi asosiy guruhlarga bo'linadi:

1. Torli cholg'ular:

Tanbur – uzun bo'yinli, metall torli cholg'u. U asosan maqomlar va murakkab kuylarning ijrosida ishlatiladi.

Sato – tanburga o'xshash, biroq bir necha torli va yirik korpusli cholg'u. U maqom asarlarini chuqur, ohangdor tarzda ifodalashda ishlatiladi.

Dutor – ikki torli cholg'u bo'lib, asosan Farg'ona, Buxoro va Qashqadaryo mintaqalarida keng tarqalgan. Dutor kuylar odatda yumshoq, lirik ohanglarga ega.

G'ijjak – kamon bilan chalinar, chinqiroq va yurakka ta'sirli ohang chiqaradi. Ko'proq raqs kuylarida yoki hamroh cholg'u sifatida ishlatiladi.

2. Puflama cholg'ular:

Nay – qadimiy puflama cholg'u bo'lib, uning sadoasi nafis, falsafiy kayfiyatga ega. Odatda, maqomlarda va sufi musiqasida ishlatiladi.

Surnay – yuqori ovozli, tantanavor kuylar uchun mo'ljallangan. To'y va bayram marosimlarida keng qo'llaniladi.

Karnay – uzun truba shaklidagi cholg'u bo'lib, marosim, tantana va harbiy yurishlarda ishlatilgan.

3. Urmali cholg'ular:

Doira – eng ko'p ishlatiladigan ritmik cholg'u bo'lib, har qanday kuyga moslasha oladi. Ayollar ansambllarida ham keng ishlatiladi.

Naqqora – juft barabanlardan iborat, ko'proq raqs, bayram yoki sahna musiqasida ishlatiladi.

Nog'ora – katta baraban bo'lib, ayniqsa, xalq sayillari va tantanalarda muhim ahamiyatga ega.

4. Chertma va urma cholg'ular (kam uchraydiganlar):

Chang – stol ustiga qo'yiladigan torli cholg'u bo'lib, ba'zi klassik asarlar ijrosida ishlatiladi.

Qobuz, rubob – qadimgi torli cholg'ular bo'lib, ba'zi hududlarda hali ham ishlatiladi.

Cholg'ular kuyning xarakterini aniqlashda, uning ohang, ritm va ekspressivlik (hissiy ifoda) jihatlarini to'laqonli yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Masalan:

Tanbur va sato – chuqur, dramatik va falsafiy mazmundagi kuylar uchun eng yaxshi vosita hisoblanadi.

Dutor – yengil, lirik va shodiyona ohanglarda ishlatiladi.

Doira va naqqora – kuyga harakat, dinamik ritm bag'ishlaydi.

Nay – kuyga ichki lirizm va sukunat, ruhi ma'naviyat baxsh etadi.

Surnay va karnay – kuchli energiya, hayajon va tantanaviy ruh beradi.

Cholg'ular orasidagi kombinatsiyalar esa o'ziga xos orkestrlash tajribalarining boshlanish nuqtasidir. Aynan shu cholg'ularga tayanib, keyinchalik xalq kuylarini orkestrlash, ularni katta sahnaga olib chiqish va notaga asoslash ishlari boshlangan. O'zbek milliy cholg'ulari milliy musiqqa madaniyatining ajralmas qismidir. Ular faqat texnik vosita sifatida emas, balki milliy tafakkur va musiqiy didning ko'zgusi sifatida xizmat qiladi. Har bir cholg'u xalqning ruhiy holatini, madaniy tafakkurini, musiqiy estetikani ifodalashda muhim vazifani bajaradi. Bugungi kunda ana shu cholg'ular asosida xalq kuylarini orkestrlash, ya'ni ularni zamonaviy ansambllar va simfonik orkestrlarga moslashtirish tajribalari rivojlanmoqda.

O'zbek musiqasi taraqqiyotida Shashmaqom va xalq kuylarining o'zaro munosabati muhim o'rin tutadi. Bu ikki qatlam bir-biridan farqli ijtimoiy va musiqiy asoslarga ega bo'lsa-da, ular o'zaro boyish, ta'sirlanish va uyg'unlashish jarayonlari

orqali O‘zbekiston musiqiy madaniyatining yuksalishida katta rol o‘ynagan. Shashmaqom Sharq musiqa madaniyatining yuksak namunasi bo‘lib, asosan Buxoro, Samarqand va Xorazm hududlarida rivoj topgan. U o‘zbek va tojik xalqlarining umumiy madaniy merosi hisoblanadi. Shashmaqom "olti maqom" degan ma‘noni bildiradi va quyidagi bo‘limlardan iborat:

Buzruk

Rast

Navo

Dugoh

Segoh

Iroq

Har bir maqomning o‘ziga xos ichki tuzilmasi mavjud bo‘lib, ular saraxbor, talqin, nasr, ufor, savt, muxtor kabi qismlardan tashkil topadi. Shashmaqom asosan tanbur, sato, nay, g‘ijjak va doira kabi professional cholg‘ularda ijro etiladi. Shuningdek, unda klassik she‘riyat – Hofiz, Navoiyning g‘azallari kuylanadi.

Xalq kuy va qo‘shiqlari esa og‘zaki an‘anada shakllangan bo‘lib, ular xalq hayoti, mehnati, urf-odatlarini, sevgi-muhabbat, tabiat manzaralari va turmush madaniyatini ifoda etadi. Ular oddiyroq tuzilishga ega, ritmik jihatdan tezroq, ohangdorligi esa sodda va yod olish uchun qulay.

Shashmaqom va xalq musiqasining o‘zaro aloqasi. Bu ikki qatlam o‘zaro ta‘sirchan va murakkab munosabatlarda bo‘lgan. Ularning asosiy o‘xshashlik va farqlari quyidagicha:

1. Modal tuzilma – Ikkalasi ham maqom asosida tuzilgan, ya‘ni rast, navo, shur, segoh kabi ladlar har ikkala qatlamda ham uchraydi.

2. Cholg‘ular – Ba‘zi cholg‘ular har ikki qatlamda ishlatiladi, masalan doira, dutor, nay.

3. Improvizatsiyaviy ruh – Har ikkala musiqada ijrochi ijodkorligiga katta ahamiyat beriladi.

4. Ijro muhitining tirikligi – Xalq musiqa hamda maqom san‘ati har ikki holatda ko‘pincha jonli ijroda, muhitga mos tarzda ifodalanadi. Belgilar Shashmaqom Xalq kuy va qo‘shiqlari. Ijro muhit Saroy, majlis, ziyo mavzelari Oddiy xalq orasida, turmush davomida. Tuzilma Murakkab, ko‘p bo‘limli Oddiy, qisqa, takroriy. Mavzular Falsafa, tasavvuf, lirika Mehnat, urf-odat, muhabbat. Cholg‘ular Tanbur, sato, g‘ijjak, nay Dutor, doira, surnay, nog‘ora. Notalashtirish Ko‘proq yozma va og‘zaki Faqat og‘zaki an‘ana asosida. Ko‘plab hollarda xalq musiqasidagi ohanglar yoki uslublar Shashmaqomda qayta ishlangan. Masalan, Ufor, Talqin, Nasr kabi bo‘limlar ayrim mintaqaviy kuylarning uslubiga juda yaqin. Bu esa Shashmaqomning xalq musiqasidan oziqlanganini anglatadi. Shuningdek, ayrim ijrochilar (masalan, Buxoro hofizlari) xalq kuylarini maqomning kirish qismi sifatida ijro etganlar.

Shashmaqomning xalq kuylariga ta'siri. Shashmaqom ohanglarining xalq orasida tarqalib ketishi orqali ayrim kuylar yarim maqomlashgan shaklda mavjud. Bunga "Munojot", "Bayot", "Savt", "Nasr" kabi xalq og'zaki ijodidagi maqomga yaqin kuylarni misol qilish mumkin. Ko'plab hofiz va sozandalar maqom yo'llaridan foydalangan holda xalqona qo'shiqlar yaratgan.

Amaliy misol va natijalar.

– Farg'ona-Toshkent maktabidagi kuylar ko'pincha maqom ohanglariga yaqin, ammo sodda variantda bo'ladi.

– Xorazm maqomoti esa xalqona maqomlashuvning yorqin namunasi bo'lib, u yerda Shashmaqom qismlari xalqona uslubda qayta talqin qilingan.

– Shashmaqomni xalq kuylariga moslab orkestrlash holatlari 20-asrda G'ulomjon Yo'ldoshev, Yunus Rajabiy, Tolib Sodiqov kabi bastakor va sozandalar tomonidan amalga oshirilgan.

Shashmaqom va xalq kuylarining o'zaro aloqasi o'zbek musiqa madaniyatining yagona tizim sifatida shakllanishiga xizmat qilgan. Ularning bir-biridan o'zaro ta'sirlanishi va uyg'unlashuvi natijasida boy, xilma-xil musiqiy meros vujudga kelgan. Bu esa keyinchalik xalq kuylarini notalashtirish, sahnalashtirish va orkestrlash imkoniyatlarini yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashrafiy, H. (1983). O'zbek milliy musiqasi. Toshkent: Musiqa nashriyoti.
2. Sodiqov, S. (1989). Maqom san'ati va uning musiqiy shakllari. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
3. Rajabiy, N. (1995). O'zbek xalq musiqasi. Toshkent: Sharq.
4. Mirzaev, A. (2012). O'zbek orkestral musiqasi: tarixi va rivojlanishi. Toshkent: O'zbekistan nashriyoti.
5. Jumaniyozov, M. (2004). Maqom va uning orkestrlash tajribalari. Buxoro: Buxoro universiteti nashriyoti.
6. Maksudov, T. (2018). Simfonik orkestrlar va o'zbek musiqasi. Toshkent: Sharq nashriyoti.